

## O'ZBEK TILIDA VA INGLIZ TILLARIDA KO'NGIL SO'ZINING KO'CHMA MA'NOLARI VA SEMANTIKASLARINI MAQOL VA MATALLARDA QO'LLANILISHI

**Omonturdiyeva Madina Pardayevna**

*(Termiz davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti xorijiy til va adabiyot ta'lim  
yo'nalishi talabasi;*

*e-mail: omanturdiyivamadina@gmail.com)*

**Babaqulova Oydin**

*Ilmiy rahbar, Termiz davlat iniversiteti o'qituvchisi*

**Annottatsiya:** *Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillarida ko'ngil so'zining maqol va matallarida qo'llanilishi va turli xil ma'nolarni anglatishi ko'rib chiqilgan va misollar yordamida tushuntirib berilgan. O'zbek xalq maollarida "Ko'ngil" so'zi ko'proq ijobiy ma'noda ya'ni yaxshilik qilishga undovchi ma'nosida keladi. Ingliz tilida esa son so'zi turli xil ma'nolarida berishi mumkin. Salbiy ham ijobiy ham bo'lishi mumkin.*

**Kalit so'zlar:** *So'z, maqol, matal, ko'ngil, leksik, birlik, semantik tahlil*

Maqol-xalq og'zaki ijodi janri; qisqa va lo'nda obrazli va obrazsiz grammatik va mantiqiy tugallangan ma'noli hikmatli ibora chuqur mazmunli muayyan aniq shaklga ega. Maqolda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari jamiyatga munosabati tarixiy ruxiy holati, etik va estetik tuyg'ulari ijobiy fazilatlarini mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallashib, ixcham va sodda shaklga kelgan.

Bola ko'rganini qilar,

Ota-bilganini

Ushbu maqolda ota nimani qilsa bola ham otaga qarab shu ishni qiladi ma'nosini beradi.

Daraxtdan meva olaman desang,

Niholligidan parvarish qil.

Ushbu maqolda esa nimagadir yoki kimgadir boshdan e'tibor ber demoqchi. Masalan kelajakda ilmiy bo'lishini hohlasang unga yoshligidan ta'lim ber ma'nosi berilgan.

Ko'ngil to'g'ri uchun.

Qulf o'g'ri uchun

Bu maqolda to'g'rilik va egrilik ma'nosini ifodalab kelgan. Chunki halol va to'g'ri insonning qalbi ham tozza bo'lsa qulfi esa har doim o'g'rilar buzib, o'g'riliklar qilgani uchun to'g'rilik va egrilikni qiyoslashda qo'llanilgan. Shu bilan birga turkey



xalqlarning maqolalaridab dastlab,Yusuf Xos Xojibning “Qutasdg’u bilig” asarida ko’ngilning qanchalik nozikligi haqida ko’rsatib berilgan.

Ko’ngil deganda misoli shisha,  
Sinib qolmasin,u uni hamisha

Ushbu misollarda ko’rishimiz mumkinki,ko’ngilning nozikligini shishaga qiyoslagan.Biz bilamizki,shisha bir singanidan so’ng uni qayta tiklab bo’lmaydi,ko’ngil ham xuddi shu kabidir,ya’ni biror yomon gap bilan yoki biror yomon ish bilan ko’ngilga ozor berib,dilini og’ritsa,ko’nglini ham qayta tiklab bo’lmaydi,u ham shisha kabi nozik bo’ladi.

Matak-muyyan hayotiy hodisani aniq va to’g’ri belgilab beradigan obrazli ifoda.Matalda o’xshatish,qiyoslash,kinoya kabi badiiy vositalarda foydalaniladi.Majoziy iboranning o’z ma’nosi bilan ko’chma ma’nosi o’rtasida yaqinlik mantiqiy bog’lanishi bo’lishi lozim.Matal bir yoki bir necha jumladan tuziladi.Ular orasida qofiyalanish hamisha ham saqlanmaydi.

Masalan,qizil qor yoqqanda  
To’ni yomonni it qopar,  
Ko’ngli yomonni haq topar,  
Qora ko’ngil,yara ko’ngil.

Bu satrlardan shuni ko’rishimiz mumkinki,qora ko’ngil so’zlari ichi qora ya’ni niyati yaxshi bo’lmagan insonlarga,biror nimadan ko’ngli xotirjam bo’lmagan insonlarga nisbatan qo’llanilgan.

Bir ko’ngil imorati-ming makka ziyorati

Ushbu maqolda esa bir insonning ko’nglini olish,ya’ni unga nisbatan yaxshi munosabarda bo’lish yoki doim uni kayfiyatini ko’tarish yoki unga biror bir yaxshilik qilish,uning ko’nglini olish-makkaga ming marta ziyorat qilganday deb tenglashtirilgan.Ushbu maqolda ham yaxshilik qilishga undash ma’nosi berilgan.

Ko’ngil oilasi-xudoning bolasi  
Ko’ngli qoradan pes yaxshi  
Ko’ngli qoraning yuzi qora.

Bu maqolda ham ichi qora,niyati yomon insonlarnib ollohb ham yomon ko’radi,ko’ngli qora insonning ichi ham niyati ham qora bo’ladi ma’nosi beradi.

Har bir tilning o’ziga yarasha maqol,masal,matallar bor va har bir tilni maqollar va matallar o’sha tilni albatta,bezaydi va bir xillikdan qutqarib qoladi.Ya’ni ularni kengroq ma’noda qo’llay oladi.Shu bilan birga “ko’ngil”so’zi ingliz tilida “soul”deb qo’llaniladi va bir qancha maqollar ham mavjud.

For example: Jone was sad and said to him:

“Diseases of the soul more dangerous than those of the body”



Jeyn xafa edi va unga dil og'rig'i,teng og'rig'idan kuchliroqdir,dedi.

Gripe one's soul-ko'ngliga tegmoq.

Not a living soul-tirik jon yo'q.

Not a single person.Don't worry I will make sure he doesn't tell a living soul about what he saw.As we entered the town,there wasn't a living soul on the streets and the whole place was earlysilent.

Hech kim yo'q havotir olmang,men u ko'rgan narsani tirik jonga aytmasligiga ishonaman.Biz shaharga kirganimizda,ko'chalarda biror tirik jon yo'q edi va hamma joy dahshatli jim edi.

Wise old soul-Qari bilganni –pari bilmas

An especially sogeious and sionsible person who has a deeper understanding or appreciation of than most.My mother is quite the wise old soul.No metter what my problem is,she always sems to know what I should do.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki,"ko'ngil"so'zining juda keng ma'noda qo'llay olishimiz va sementik maydoniga kiruvchi maqolalar va matallarni tilshunoslik nuqtai nazaridan juda ko'p ma'nolarga ega ekanligini ko'rib chiqdik va "ko'ngil"so'zi ibgliz tilida bir o'zi ishlatilishidan ko'ra birikma bo'lib ko'proq ishlatilishini tahlil qildik.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.A.Medvaliyev.O'zbek xalq maqollari.Toshkent,457-461-betlar.

2.T.Mirzaqulov o'zbek tili morfem perodigmatikasi va sintegmen masalalari DDA Toshkent 1994,18 bet.

3.Horn by A.S Oxford Advanced Learners dictionary Sixth edition Edited by Selly Wehmeneier Oxford University press 2000,p.83.

